

BADIY MATNDA XUSHMUOMALALIKNING MAZMUNIY TIPLARI

Feruza Umurova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Jo‘raqulova Shahlo

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnda xushmuomalalikni ifodalashning mazmuniy tiplari o‘rganiladi. Rasmiy, norasmiy va kundalik-maishiy xushmuomalalik tiplarining asosiy belgilari tahlil qilindi va ularning sotsiopragmatik jihatlari yoritildi. Mazkur turlar o‘rtasidagi farqlar va ulardan foydalanishning lingvistik hamda ijtimoiy omillari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Xushmuomalalik, badiiy matn, sotsiopragmatika, rasmiy matn, marosimiy nutq, kundalik muloqot.

Tilshunoslikda badiiy matn tipi tushunchasi turlicha tasnif etilganini ko‘rshimiz mumkin. Nemis olimi F.Zimmerning qayd etishicha, matn tipi bu murakkab butunlikdan iborat, kommunikativ akt ishtirokchilari irodasiga muvofiq tarzda tugallangan hamda til vositalarining cheklanganligi, o‘ziga xos kombinatorikasi va ekstra- va intralingvistik matniy xususiyatlari muntazam namoyon bo‘ladigan, yangi o‘ziga xos belgilar to‘plamini hosil qilib, tashkil etuvchi, aniqlovchi va farqlovchi ma’noviy funksiyalari qorishuvi bilan xarakterlanuvchi qurilmadir[Simmler F. Zur Fundierung des Text- und Textsorten Begriffs. – Heidelberg, 1984. – P. 37].

Badiiy matn tipi tushunchasiga boshqacha yondashgan S.Korolkovaning fikriga ko‘ra “matn tipi bu ma’lum bir lingvistik jamiyatning madaniyati va tarixi bilan shartlangan, prototip, turli xil mavzuviy mazmundagi matnlarning funksional va struktur xususiyatlarini aks ettiruvchi samarali modeldir. Matn tipi invariant, doimiy belgilar bilan bir qatorda, har qanday matnda ham reallashavermaydigan variativ belgilarning mavjud bo‘lishini nazarda tutadi[Королькова С.А. Текст, тип текста в переводе иллюстрации // <http://www.rusnauka.com/> 18_NiIN_2007/Philologia/22429.doc.htm]

Ushbu talqinda matn tipi muayyan lingvistik jamiyatga mansub va milliy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan matnlarning muayyan modeli sifatida baholangan. N.S.Valgina ham matnlarni badiiy va badiiy bo‘lmagan tiplarga ajratgan. Uning fikricha, badiiy matnlar jins-janr xususiyatiga asoslangan o‘z tipologiyasiga ega. Jumladan, badiiy matnlar prozaik va she’riy matnlarga bo‘linadi. Badiiy bo‘lmagan matnlarning esa o‘z xususiy tipologiyasi mavjud: ommaviy kommunikatsiya matnlari, ilmiy matnlar, rasmiy-ish hujjatlari matni[Валгина Н.С. Культурология. – Ташкент: Узбекистан Республикаи мактаби, 2004. – С. 141-142.]

Tilshunoslikda matnni bir necha umumiyligi belgilari asosida tasniflash tamoyilini tilshunoslardan turlicha tasnif etgan. Masalan, nemis olimi K.Brinker matnlarni ularga

umumiyligi bo‘lgan quyidagi uch turdagisi belgi asosida tiplarga ajratgan: 1) kommunikatsiya kechishining shartlari aks etgan kontekstual yoki situativ; 2) kommunikativlarning niyat-xohishlari nuqtayi nazaridan matn tipini tavsiflovchi kommunikativ-funksional; 3) struktur-lingvistik tipdagi matnlar[Brinker K. Linguistische Textanalyse. – Berlin, 1992. – P. 132].

O‘zbek tilshunosligida A.Mamajonov, N.Turniyozov, M.Yo‘ldoshev, M.Abdupattoev, B.Yo‘ldoshev, X.Yo‘ldoshevalarning matn lingvistikasining nazariy masalalari, matn lingvopoetikasi tahliliga bag‘ishlangan ishlardan matnni tasniflash tamoyillari, matn tiplari haqidagi qarashlar ilgari surildi[Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2004. – 96 б.; Turniyozov N., Yo‘ldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 96 б.; Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 77-87; Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн назарияси. Ўқув-услубий қўлланма. – Фарғона: ФарДУ, 2016. – Б. 5-108.] O‘zbek tilshunosligida Xolida Yo‘ldosheva “Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi” nomli doktori dissertatsiyasida badiiy matn tipi tushunchasiga keng qamrovda tasnif beradi. Biz ham yuqoridagi tasniflarga asosan ishimizda “badiiy matn tipi” tarzida qo‘llashni ma’qul topdik.

Badiiy matnda xushmuomalalikni ifoda etishda ham mazmuniy tiplari mavjud. Badiiy matnda xushmuomalalikni ifodalashning mazmuniy omillar asosida ifoda etish keng ma’noga ega bo‘lib, *shaxs, muhit, nutq vaziyati* kabilarni qamrab oladi. Shunga ko‘ra badiiy matnda xushmuomalaikni ifodalashni quyidagi sotsiopragmatik tiplarini ajratish mumkin:

1. Rasmiy xushmuomalalikni ifodalovchi badiiy matn tipi.
2. Xushmuomalalikni marosimlarda ifodalovchi badiiy matn tipi.
3. Kundalik-maishiy jaroyonni ifodalovchi badiiy matn tipi.

Quyida ularga birma-bir izoh beramiz.

Rasmiy xushmuomalalikni ifodalovchi badiiy matn tipi. Rasmiy nutqiy muloqotning muvaffaqiyati ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Bularidan biri rasmiy muloqotda o‘zaro hurmat tamoyiliga amal qilinishidir. Sh.Safarovning ma’lumot berishicha, pragmalingvist J.Lich hurmat tamoyilining voqelanishi oltita hech qanday isbotni talab qilmaydigan qoidalar (postulatlar) faollashuvidan iborat ekanligini uqtiradi. Bu qoidalar quyidagilar:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinislari “sarfi”ni kamaytir; uning foydasini ko‘paytirishga harakat qil);
2. Himmat, olijanoblik qoidasi (o‘z foydangni kamroq ko‘zla, barcha “sarfi”ni o‘z zimmangga ol);
3. Ma’qullah, tahsin qoidasi (o‘zgalarni yomonlama, g‘iybat qilma, koyima);
4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o‘z-o‘zingni maqtashni keskin kamaytir);
5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);

6. Xush ko‘rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrihox, oqko‘ngil bo‘l)[Сафаров Ш. Парагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б.144].

Badiiy matnda rasmiy muloqotni ifodalanishi badiiy asarni hayotiy, aniq voqealar asosida tasvirlanganligini ko‘rsatish bilan belgilanadi. Chunki, rasmiy nutqiy muloqotda boshqa muloqot turlaridan farqli ravishda hurmat kategoriyasining o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

“- O‘rtoqlar! - «Qovun so‘ysa bo‘ladigan» darajada silliq dazmollangan shim kiygan Zakunchi o‘rtaga chiqdi.

- O‘rtoq kolxozchilar! Vatanimiz boshiga og‘ir sinov tushdi. Qahramon jangchilar nemis-fashist bosqinchilariga qarshi shiddatli jang olib bormoqda! - U ko‘rsatkich barmog‘i bilan ingichka, chiroyli mo‘ylovini silab qo‘ydi. Hayajonlanib davom etdi. - Frontga dobrovolniy otlanganlar orasida bizning kolxozi a’zosi, staxanovchi ketmonchimiz Kimsan Husanov ham borligidan faxrlanamiz! Buyoqqa kel, ukam! (O‘tkir Hoshimov. “Ikki eshik orasi” romani. –B. 105)

Bu matnda rasmiy murojaatda nutqiy etiketga rioya qilinganligi va shu orqali so‘zlovchi oddiy xalq bilan o‘zini teng shaxs sifatida baholashini ko‘rsatadi. Matnda so‘zlovchi rasmiy nutqida xushmuomalalikni ifodalash maqsadida “o‘rtoqlar” murojaat birligidan foydalangan. “O‘rtoqlar” murojaat birligi o‘zbek tiliga 1990-yilda rus tilidagi “товарищ” murojaati asosida kirib keldi. O‘zbek tilining etimologik lug‘atida bu so‘zning etimologiyasi “Teng shaxslar bir-biriga nisbatan ishlataladigan so‘z”[Рахматуллаев III. Ўзбек тилининг этиологик лугати (туркий сўзлар). - Тошкент, Университет, 2000. 489-б] tarzida keltirilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa “o‘rtoqlar” so‘ziga uchinchi ma’nosi sifatida quyidagicha ta’rif beriladi:

3.Rasmiy. Kishilarga murojaatda, odatda ularning familiyasi, kasbi, unvoni va sh.k. bildiruvchi so‘zga qo‘shib ishlatalidi.

Botir firqa tushunmadi. Bir hovuzga qaradi, bir komandirga qaradi. Qishloq qiblasida yoyilib yotmish qabristonga qaradi.

— Ammo-lekin har yurtni o‘z qabristoni bor, — dedi.

— Bor, to‘g‘ri, bor, — dedi komandir. — Lekin ana shunday buyruq ham bor!

— Qabriston ko‘chirilsin, degich buyruqmi?

— Yo‘q, boshqacharoq buyruq, boshqacharoq...

— Xo‘p, aytin, qandaychikin buyruq ekan? Men qishloq sho‘rosi raisiman, bilishim kerak?

— Qizimang, o‘rtoq rais, qizimang. Biz ishimizni bilib qilamiz. Biz Ukrainada ocharchilikka qarshi kurashib, rosa tajriba to‘plaganmiz. Biz ana shu tajribalarimizdan kelib chiqib ish qilamiz.

Bu matn rais va komandir o‘rtasi kechgan rasmiy muloqotdan olingan bo‘lib, komandir raisga mansab jihatdan teng ekanligi ko‘rsatish uchun “o‘rtoq” murojaat shakli qo‘llanilganini ko‘rshimiz mumkin.

Z.Akbarova muloqotda murojaatning muayyan ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi vosita ekanligi haqida fikr yuritar ekan, uning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, ta’na, qo‘rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma’no ottenkalari qo‘shilgan holda ifodalanishi, eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog‘liqligi, til esa ana shu munosabatni qanday bo‘lsa o‘shanday, asliga mos holda ro‘yobga chiqishi uchun vosita bo‘lishini ta’kidlaydi [Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.8.

Badiiy matnda rasmiy nutqiy muloqotda xushmuomalalik ifodalashning eng faol til vositasi sifatida yozuvchi murojaat birliklaridan unumli foydalanadi.

Xushmuomalalikni marosimlarda ifodalovchi badiiy matn tipi. O‘zbek xalqi azal-azaldan insoniyligi, olivjanob fazilatlari bilan ajralib turadi. To‘y hashamda xizmatga turadigan, azada o‘zining shirin so‘zi bilan yonma-yon turadigan ham o‘zbekdir. Va albatta, marosamlarda ifoda etiladigan xushmuomalalikni ifoda etuvchi so‘zlar boshqalarga qaraganda farqlanadi.

Abdulqodir o‘z qishlog‘idagi maktabning muallimi bo‘lib, Hoji to‘ram avlodining davomchisi bo‘lib, elda obro‘, e’tibor topdi. Hoji to‘ram vali ekan. Uning aytgani bo‘ldi. Madinadan boshlangan shajara Savayda barham topmadi. Allohning Rahmonligini qarang, Abdulqodirga olti o‘g‘il, olti qizni berdi. Hoji to‘ramning nomi o‘chib ketmadi. Alloh Hoji to‘ramning urug‘iga baraka berdi. Abdulqodir Abdulqodir ota bo‘lib, oltmish nabiraga bobo bo‘lib, piru badavlat bo‘lib dunyodan o‘tdi.

- *Sabrli bo‘linglar, Alloh sabrli bandasini xor qilib qo‘ymaydi, - bo‘ldi kenja neverasiga Muhammad Sodiq deb ism bergen Abdulqodir boboning so‘nggi so‘zları.*

- *To‘g‘ri bo‘linglar, halol bo‘linglar. Hech kimga yomonlik qilmanglar. Sizga yomonlik qilganga siz ham yomonlik qilmang, Qozi tepada, O‘zi haqni botildan ajratadi* [<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/karimberdi-to-ramurod-1960/karimberdi-to-ramurod-cho-mmoq-hikoya>].

Badiiy matnda xushmuomalalikni marosimlarda ifodalashda shaxs va mavqeyining o‘rni ham asosiy omil sanaladi. Bunda nutqiy muloqot jarayonida faollashuvchi inson faktori bilan bog‘liq doimiy va o‘zgaruvchan xususiyatlar bilan ifoda etiladi. Bu haqda professor V.V.Bogdanov quyidagilarni kiritadi:

- 1) lisoniy qobiliyat;
- 2) ma’lum millatga mansublik;
- 3) ijtimoiy -madaniy statusi (ma’lum ijtimoiy guruhga oidlik, kasbi, lavozimi, ma’lumoti, yashash joyi, oilaviy ahvoli);
- 4) biologik fiziologik ko‘rsatkichlari (jinsi, yoshi, sog‘ligi, jismoniy nuqsonlar mavjudligi yoki yo‘qligi);
- 5) ruhiy psixologik turi (temperament, patologik ko‘rsatkichlari);
- 6) vaziyatga nisbatan o‘zgaruvchan ruhiy holati (kayfiyat, muvaqqat bilim, maqsadi va qiziqishi);
- 7) doimiy didi, qiziqish va odatlari;

8) tashqi ko‘rinishi (kiyinishi, o‘zini tutishi, xulq-atvori)[Mo‘minov S., Rasulov Q. Komunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida\ Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari. -Samarqand: SamDU, 2007.-70-72 b.].

Professor V.V.Bogdanov sanab o‘tgan belgilarning ko‘pchiligi kommunikantlarning shaxsiy sifati bo‘lib, ular biofiziologik va ruhiy xarakterga egadirlar. Kommunikantlarning sifatlari muloqot tizimida qanchalik muhim o‘rinni egallamasin, har holda bu tizimning markazida kommunikantlarning ijtimoiy roli turadi. Yuqoridagi matnda “*Sabrli bo‘linglar*” deyish orqali obruli shaxsning xushmuomalalik bilan jamoaga taskin berib, marosimdagи nutqi ifoda etilgan. Muloqot ishtirokchilarining aynan shu xarakteristikasi nutqiy faoliyatning “qay darajada joriylanishiga obyektiv va subyektiv ravishda o‘z ta’sirini ko‘rsatuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shaxs ijtimoiy mavqeyini farqlash uning kommunikativ faoliyatini o‘rganish uchun muhimdir. Ijtimoiy status va rollardagi farqlar albatta muloqot birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlarida “iz” qoldiradi.

Kundalik-maishiy jaroyonda xushmuomalalikni ifodalovchi badiiy matn tipi. Bunday matn tipida kundalik-maishiy jaroyonda qo‘llaniladigan xushmuomalalikni ifodalagan birliklar ko‘proq kuzatiladi. Bu kundalik-maishiy vaziyatlarda epizodik qisqa muddatli norasmiy yoki yarim rasmiy muloqotga xosdir. Masalan, “soat necha ekanligini ayta olasizmi, iltimos?”, “kechirasiz”, “ruxsat bersangiz”, “rahmat”, “salom”, “xayr” va h.k. Bunday hollarda rasmiy nutqiy muloqotda hurmat kategoriysi sizlash, ehtirom ko‘rsatish, maqtov ifodalash kabilar bilan bog‘liq holda voqelanadiki, bu holat ushbu kommunikativ kategoriyaning murakkab hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, o‘zbek madaniyatida hurmat kategoriysi sizlash, e’zozlash, ulug‘lash kabi nutqiy harakatlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu holat hurmat kategoriyasining ushbu kategoriylar bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

- *Kechirasiz, mehmon, sizni ko‘rikdan o‘tkazmasak bo‘lmaydi, — deyishib, kiyimlarimni paypaslab chiqishdi. Keyin darvozadan ichkariga kirishimga ruxsat berishdi. Shu payt kutilmagan holat yuz berdi.* (Nuriddin Ismoilov “O‘limga mahkum qilinganlar” roman. – B. 145.)

- *Yo ‘-o ‘-q, — dedim boshimni sermab. — Bunaqa katta summani ololmayman.*
- *Kechirasan, isming nima edi? — so ‘radi chol qoshlari chimirilib.*
- *Eldor, — dedim men xayolimga kelgan ismni aytib.* (Nuriddin Ismoilov “O‘limga mahkum qilinganlar” roman. – B. 61.)

Badiiy matnda “uzr so‘rayman” shaklda emas, xushmuomalalikning nutqqa xoslangan shakli “kechirasiz” variantining qo‘llanilishi bevosita obrazning haqoniy, hayotiy aks ettirgan. Shu bilan birga muloqot jarayonida erkak nutqida xos bo‘lib, ranjitmaslik, ehtiyyotkorona yondashish kabi fazilatlar ham ochib berilgan.

Marhamat, — kapitan qo‘ltig‘iga qisib turgan papkasini ochib, bir parcha qog‘oz olib ko‘rsatdi. Qog‘oz raisning qo‘lida uzoq turib qoldi. Bir o‘qiydi, bir kapitanga, bir oyimga qaraydi, yana o‘qiydi.

— *Darvozani ochishga yordam bersangiz, iltimos – dedi kapitan.*

— Menmi? — hayron bo‘ldi rais, — darvoza meniki emasku.

— Ha egasi siz emassiz. Lekin Yoqut Karimova qonunga zid borib qarshilik ko‘rsatyapti. (X.To‘xtaboyev. “Mungli ko‘zlar”. –B. 42.)

“Iltimos” so‘zi kundalik xushmuomalalikda qo‘llanuvchi odatiy birlik bo‘lib, asosan, ayollar nutqida ko‘proq qo‘llaniladi. Muddaoni (maqsad, istakni) qondirish haqida qilingan murojaat, so‘rashni ifoda etadi.

Ba’zan badiiy matnda “iltimos” so‘zi xushmuomalalik bilan shunday so‘rash, talabni qayd etuvchi murojaat shakli sifatida ham qo‘llaniladi.

- *Iltimos, siz qoling, — dedi Gavhar yana yalinib.* (O‘. Hoshimov. “Qalbingga quloq sol” romani.)

- *Iltimos, koridorga tupurilmasin.* (S. Siyoyev, Yorug‘lik)

Xayrixohlik, do‘stona muomala — qarindoshlar, do‘srlar, yaqin tanishlar o‘rtasida kundalik-maishiy vaziyatlardagi muloqotga xosdir. Stilistik va emotsiyal ekspressivlik shakllarning xilma-xilligi, ularning keng variativligi, yumshoq humor bilan tavsiflanadi. “Norasmiy muloqot turlari, xususan, oiladagi yoki yor-u birodarlar, yaqinlar o‘rtasida amalga oshadigan nutqiy muloqotda xushmuomalalik majburiylik, doimiylik belgisiga ega bo‘lib, bevosita jamiyatda shakllangan axloq-odob mezonlari, nutq odobi, nutq madaniyati me’yorlari taqozosi asosida nutqqa xoslanadi. Rasmiy muhitda xushmuomalalik rasmiylik doirasidan chiqib ketishi mumkin emas. Shunga ko‘ra, bu muloqot turida xushmuomalalik ko‘pincha ixtiyoriy xarakterda bo‘lib, rasmiylik tamoyillariga amal qilingan holda voqelanadi. Rasmiy nutqiy muloqotning ayrim turlari, xususan, buyruqlar, farmoyishlar matni, dalolatnama, shikoyat, da’vo xatlari kabi ish hujjatlari matni qat’iy rasmiylik tamoyiliga amal qilishi hamda mohiyatiga ko‘ra ularda xushmuomalalik taqozo etilmaydi. Yoki xavfsizlik qoidalariга rioya qilish talabnomasida ham xushmuomalalikka zarurat sezilmaydi. [Narxodjayeva X. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. –Qarshi. 2023. - B. 128.].

Ma’lumki, til birliklarining nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadigan xususiyatlari, kommunikatsiyaning nutq ishtirokchilari maqsadi bilan bog‘lanishi, muloqot jarayonida tanlanadigan nutqiy akt turlari, muloqot shakllarini o‘rganish pragmalingvistikaning markaziy masalalari hisoblanadi.

Badiiy matnda kundalik-maishiy jarayonni ifodalashda xushmuomalalik tamoyiliga rioya qilish ma’lum qonun-qoidalarni talab qiladi. Bu badiiy matnda qahramonning manfaatlarini, uning fikrlarini hisobga olgan holda, istak va his-tuyg‘ularni engillashtirish vazifasini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Королькова С.А. Текст, тип текста в переводоведении // http://www.rusnauka.com/18_NiIN_2007/Philology/22429.doc.htm

2. Валгина Н.С. Ko‘rsatilgan manba //
<http://evartist.narod.ru/text14/16.htm>
3. Brinker K. Linguistische Textanalyse. – Berlin, 1992. – P. 132.
4. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2004. – 96 б.; Turniyozov N., Yo‘ldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 96 b.; Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 77-87;
5. Мамажонов А., Абдулпаттоев М. Матн назарияси. Ўқув-услубий кўлланма. – Фарғона: ФарДУ, 2016. – Б. 5-108.
6. Narxodjayeva X. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. –Qarshi. 2023. - Б. 128.
7. Umurova F.P. Xushmuomalalik sotsiopragmatik hodisa sifatida. Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi . Ilmiy axborotnomasi.2023. 4-son .–Б. 172-175.(10.00.00. №21)
8. Umurova F.P. Xushmuomalalikning murojaat semasining gender ifodalanishi. O‘zMU xabarlari. 2023. 1/12/2. –Б.384-387 . (10.00.00. №15)
9. Umurova F.P. Xushmuomalalik sotsiopragmatik hodisa sifatida tatqiqi Til va adabiyoti ta‘limi . 2024. 1-сон. –Б. 43-45.(10.00.00. №9)
10. Umurova F.P. Xushmuomalalikda minnatdorchilik semalarining badiiy matnda ifodalanishi . 2024. 8/4. Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy axborotnomasi. –Б.146-149 (10.00.00. №21)